

METAKOGNITIV YONDASHUVNING TA'LIM JARAYONIDAGI NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY QO'LLANILISHI

Mamadjanova Shoxida Nemat qizi
Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada metakognitiv yondashuvning pedagogik jarayonlardagi nazariy asoslari, asosiy tamoyillari va amaliy qo'llanilish usullari tahlil qilinadi. O'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z bilimini baholash va o'quv faoliyatini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishda metakognitiv strategiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim jarayonida metakognitsiyaning integratsiyasi, o'qituvchi va o'quvchi rolining o'zgarishi, shuningdek, metakognitiv faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish shartlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: metakognitsiya, o'z-o'zini nazorat qilish, o'quv strategiyalari, mustaqil fikrlash, o'quvchilar faolligi, o'z-o'zini baholash, kognitiv yondashuv, refleksiya, samarali ta'lim, metodik yondashuv.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ МЕТАКОГНИТИВНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы и практическое применение метакогнитивного подхода в образовательном процессе. Особое внимание уделяется развитию у учащихся навыков самостоятельного мышления, самооценки и управления собственной учебной деятельностью. Анализируются условия создания метакогнитивной образовательной среды, трансформация ролей учителя и ученика, а также стратегии эффективного внедрения метакогниции в обучение.

Ключевые слова: метакогниция, самоконтроль, стратегии обучения, самостоятельное мышление, активность учащихся, самооценка, когнитивный подход, рефлексия, эффективное обучение, методологический подход.

THEORETICAL BASIS AND PRACTICAL APPLICATION OF THE METACOGNITIVE APPROACH IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract: This article examines the theoretical foundations and practical implementation of the metacognitive approach in educational settings. It focuses on the development of learners' abilities for self-directed thinking, self-assessment, and regulation of their learning activities. The study highlights the changing roles of teachers and students, the integration of metacognitive strategies into modern curricula, and the pedagogical conditions required to foster a metacognitive learning environment.

Keywords: *metacognition, self-regulation, learning strategies, independent thinking, learner engagement, self-assessment, cognitive approach, reflection, effective instruction, methodological framework.*

KIRISH

XXI asr ta'limi o'quvchilarning nafaqat bilim olish, balki o'z-o'zini boshqarish, mustaqil o'rganish va ongli ravishda fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu borada metakognitiv yondashuv zamonaviy pedagogikaning markaziy tushunchalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Metakognitsiya – bu shaxsning o'z fikrlash jarayonini anglash, boshqarish va tartibga solish qobiliyati bo'lib, o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Flavell tomonidan 1976 yilda fanga kiritilgan "metakognition" tushunchasi o'shandan buyon ko'plab tadqiqotlarda pedagogik psixologiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Tadqiqotchilar N.B.Ananiev, A.V.Brushlinskiy, J.Brown va D.Kuhn metakognitiv faoliyatni shaxsning reflektiv tafakkurga asoslangan bilimlarni ongli boshqarish qobiliyati sifatida ta'riflaganlar. Bu yondashuv, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning o'rganishiga faol, ijobiy va ongli yondashuvni shakllantirishda samarali usul bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqola metakognitiv yondashuvning mohiyati, uning asosiy komponentlari (bilish, nazorat, rejalashtirish, refleksiya) va ta'lim jarayoniga qo'llanilishi bo'yicha tahliliy yondashuvga asoslanadi, shuningdek, zamonaviy darslar jarayonida metakognitsiyaning integratsiyasi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro aloqalar, hamda o'quvchilarning shaxsiy ta'lim yo'nalishlarini anglash qobiliyatini shakllantirishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.

METODOLOGIYA

Maqolada tanlangan metodologik asoslar metakognitiv yondashuvni chuqur tahlil qilish, nazariy manbalarni o'rganish va ta'lim jarayonidagi real amaliyot bilan bog'lashga qaratilgan. Tadqiqot quyidagi metodik usullarga tayanadi: tahliliy usul, analitik yondashuv, metakognitsiya bilan bog'liq asosiy tushuncha, komponent va tamoyillar tahlil qilindi (Flavell, Schraw va Dennison, Zimmerman kabilarning asarlari asosiy nazariy manba bo'ldi.); solishtirma metod - turli darajadagi o'quvchilar uchun metakognitiv strategiyalarning qo'llanishi va natijalari taqqoslab

o'rganildi (boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarning rejalashtirish va baholash ko'nikmalari o'rta va yuqori sinflardagi o'quvchilar bilan solishtirildi.); pedagogik kuzatuv va empirik tahlil maktab darslari davomida o'quvchilarning reflektiv faoliyatini baholash uchun kuzatuvlar olib borildi va tajribali o'qituvchilar fikrlari asosida metakognitiv yondashuvni tatbiq etishdagi samaradorlik va muammolar o'rganildi; intervyu va so'rovnomalar - boshlang'ich sinf o'quvchilari va ularning o'qituvchilari bilan intervyular o'tkazilib, metakognitiv faoliyatga bo'lgan munosabat va tayyorgarlik darajasi aniqlashtirildi. Tadqiqot davomida dunyo maktablari metakognitiv o'qitish strategiyalarini qo'llagan maktablar tajribasi ham o'rganildi. Natijada maqolada nafaqat nazariy asoslar, balki amaliy metodlar ham yoritilgan bo'lib, ularning samaradorligi real tajribalar orqali qo'llab-quvvatlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Metakognitsiya tushunchasi birinchi marta J.Flavell tomonidan 1976-yilda ilgari surilgan, metakognitsiya - bu insonning o'z bilim jarayonlari haqidagi bilimi, ya'ni "fikrlash haqida fikrlash" (thinking about thinking). Flavell ta'kidlaganidek, metakognitiv yondashuv ikki asosiy komponentdan iborat: metakognitiv bilim va metakognitiv nazorat. Keyingi yillarda bu tushuncha J.Brown, D.Kuhn, P.Pintrich, B.Zimmerman va boshqa pedagogik-psixologik tadqiqotchilar tomonidan keng rivojlantirildi. Metakognitiv bilimga deklarativ (nimani bilish), protsedural (qanday bajarishni bilish) va sharoitga oid bilimlar kiradi va komponentlar o'quvchilarning bilimlarni ongli ravishda boshqarishiga yordam beradi.

Metakognitiv ko'nikmalarning asosiy tarkibiy qismlari bu uning bosqichlaridir. Adabiyotlarda metakognitiv faoliyat quyidagi asosiy bosqichlarga ajratilgan:

1. Rejalashtirish (Planning) – topshiriqni bajarishga tayyorgarlik, resurslarni aniqlash;
2. Monitoring (nazorat) – jarayon davomida o'zini kuzatish;
3. Evaluatsiya (baholash) – natijani tahlil qilish, xatolarni aniqlash va kelajakda takomillashtirish.

Zimmerman o'quvchilarni "o'z-o'zini boshqaruvchi o'rganuvchilar" sifatida shakllantirishda metakognitiv strategiyalarning rolini chuqur tahlil qiladi. U

o'zining "Self-Regulated Learning" modelida o'quvchining faolligi, anglanishi va motivatsiyasini o'zaro bog'liq uch fazali sikl sifatida tasvirlaydi: oldingi o'rganish, jaryon mobaynidagi nazorat, yakuniy tahlil. So'nggi tadqiqotlar metakognitiv ko'nikmalarning nafaqat o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga, balki ularning mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatlariga ham ta'sirini ko'rsatmoqda. Hattie tomonidan olib borilgan meta-tahlilda metakognitiv strategiyalar eng yuqori samaradorlikka ega 10 ta ta'lim yondashuvi qatorida turadi. Shuningdek, OECD hisobotlarida ham 21-asrda zarur bo'lgan universal kompetensiyalar sirasida metakognitiv savodxonlik asosiy tarkibiy qism sifatida ko'rsatilgan.

Metakognitsiyani rivojlantirish bo'yicha metodlar va yondashuvlar: a) Refleksiv kundaliklar - o'quvchilar o'z o'rganish jarayonini yozma tarzda tahlil qiladi. Ular nima o'rganganini, qanday qiyinchiliklarga duch kelganini va qanday yechim topganini yozadi; b) Savol-javob asosidagi o'rganish - o'qituvchi o'quvchilarga "nima uchun?", "qanday bilasan?", "boshqacha yo'l bilan bo'ladimi?" kabi savollar orqali metakognitiv fikrlashni rag'batlantiradi; c) Jurnal yozish va jamoaviy refleksiya - har bir darsdan so'ng o'quvchilar qisqacha jurnal yozadilar va guruh ichida almashib, bir-birining fikrlarini eshitadilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali abstrakt fikrlash darajasiga to'liq erishmagan bo'lsa-da, ularda metakognitiv komponentlar asta-sekinlik bilan shakllantirilishi mumkin. Bu bosqichda quyidagi shart-sharoitlar muhim: o'yin elementlarini o'quv strategiyalari bilan uyg'unlashtirish; modellashtirish (ko'rsatish orqali o'rgatish); "think-aloud" strategiyasini qo'llash; diagnostik va formatif baholash usullari asosida oraliq refleksiya berish. Ingliz tili va boshqa xorijiy tillarni o'rgatishda metakognitiv strategiyalar grammatikani tushunish, kontekstda so'z yodlash, tinglab anglash va matn yozishni rejalashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Til o'rganishda metakognitiv savollar (What do I know? What do I need to know? How can I learn it?) yordamida o'quvchining ongli yondashuvi shakllanadi.

MUNOZARA

Metakognitiv yondashuv o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish, fikrlash faoliyatini boshqarish, mustaqil ravishda rejalashtirish va natijani tahlil qilish

ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu jarayon o'quv faoliyatining asosiy elementi hisoblanadi. Ko'plab xorijiy (Flavell, Zimmerman, Pintrich) va mahalliy (Muslimov, Jo'raeva, Nazarov) tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, metakognitiv strategiyalarni erta yoshdan boshlab joriy etish o'quvchining kognitiv taraqqiyotini jadallashtiradi. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, u nafaqat bilimlarni yod olishga emas, balki o'rganish jarayonini anglashga yo'naltirilgan. Bunda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. O'quvchining o'zini anglash darajasi;
2. Darsdagi refleksiv faoliyatga jalb etilishi;
3. O'qituvchi tomonidan berilayotgan metakognitiv yordam (ko'rsatma, savollar, fikr yuritish texnikasi).

Boshlang'ich sinf - bu o'quvchilarda psixologik poydevorlar shakllanadigan bosqich. Shuning uchun metakognitiv yondashuvni aynan til o'qitish jarayonida joriy qilish alohida dolzarb. Quyidagi jadvalda metakognitiv strategiyalarning ingliz tili darslariga integratsiyalashuvi aks ettirilgan:

Jadval 1. Metakognitiv strategiyalarning integratsiyalashuvi

Faoliyat turi	Metakognitiv yondashuv	Ingliz tili darsiga qo'llanishi
Rejalashtirish	Oldindan maqsad belgilash	"Today I will learn how to describe a person..."
Monitoring	O'z faoliyatini nazorat qilish	Tinglab tushunishda so'zlarni belgilash
Refleksiya	Natijani tahlil qilish	"What did I learn today? What was difficult?"
O'z-o'zini baholash	Natijani mustaqil baholash	"Did I use the right word in my sentence?"

Bu jadvaldan ko'rinib turibdiki, metakognitiv strategiyalar o'quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirishda kuchli ichki mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Refleksiya - bu o'quvchi tomonidan bajarilgan topshiriqlar ustidan fikr yuritish, o'z yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, keyingi bosqich uchun reja

tuzishdir, o'quvchi o'z faoliyatini ongli nazorat qilishga o'rganadi. Quyidagi texnikalar ayniqsa samarali ekanligi aniqlangan:

1. "Traffic Light" refleksiya usuli (yashil – tushundim, sariq – qiyin, qizil – tushunmadim);
2. "Exit tickets" – dars so'ngida yozma javoblar orqali darsni baholash;
3. "Reflective Journals" – muntazam ravishda yozma kundalik yuritish.

Metakognitiv yondashuvda o'qituvchining roli o'zgaradi. Endi u bilim beruvchi emas, balki o'quvchini fikrlashga yo'naltiruvchi yo'lboshchi hisoblanadi. Quyidagi reflektiv savollar orqali o'qituvchi o'quvchini fikrlashga chorlaydi: "Why did you choose this word?", "How can you check your answer?", "What helped you to remember the new vocabulary?". Bu savollar orqali o'quvchining ichki fikrlash jarayoni faollashadi va bu orqali chuqur o'zlashtirish yuz beradi.

Andijon, Farg'ona, Toshkent va Namangan shaharlaridagi 12 ta maktabda olib borilgan kuzatuvlar (2024-yil avgust-dekabr oralig'ida) quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

Jadval 2. Kuzatuvlar natijalari.

Ko'rsatkichlar	Metakognitiv metod qo'llangan guruh (%)	An'anaviy guruh (%)
Yangi so'zlarni o'zlashtirish darajasi	78%	56%
Mustaqil fikr bildirishi	71%	45%
O'z-o'zini baholash ko'nikmasi	66%	34%
Matn bilan ishlashda refleksiya	82%	49%

Bu natijalar metakognitiv strategiyalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Muammolar: ba'zi o'qituvchilarning metakognitiv strategiyalardan foydalanish tajribasi yo'q; o'quvchilar tomonidan dars davomida o'z fikrini mustaqil ifodalashga psixologik to'siqlar; resurslar va darsliklarda reflektiv topshiriqlar yetarli emas.

XULOSA

Metakognitiv yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilini o'rganish jarayonida yuqori

samaradorlikni ta'minlaydigan zamonaviy pedagogik yo'nalishlardan biridir. Mazkur maqolada olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, metakognitiv strategiyalar nafaqat o'quvchilarning lisoniy bilimlarini boyitadi, balki ularning mustaqil fikrlash, o'z-o'zini baholash va o'quv faoliyatiga ongli yondashuvlarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi, yondashuv orqali o'quvchilar o'z fikrini ifodalashda, yangi lug'atlarni eslab qolishda va nutqiy faoliyatda mustaqil harakat qilishga o'rganadi. Darslarda rejalashtirish, monitoring va refleksiya bosqichlari asosida ish olib borilishi o'quvchilarni nafaqat o'rganishga, balki o'rganishni o'rganishga (learning how to learn) o'rgatadi. Bu esa XXI asr kompetensiyalarining ajralmas qismidir va tadqiqot davomida olingan kuzatuv va amaliy tajribalar shuni ko'rsatdiki, metakognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning so'z boyligi, til bilan ishlash tezligi va nutqiy faolligi an'anaviy darslarga nisbatan ancha yuqori bo'lmoqda. O'quvchilarda mustaqil fikrlash va reflektiv savollarga javob berish ko'nikmalari rivojlanmoqda, bu esa ularning ijtimoiy va muloqot kompetensiyalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, biroq ushbu jarayonda bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bu boradagi metodik tayyorgarlik darajasi past bo'lishi, o'quvchilar orasida nutqiy psixologik to'siqlar, mavjud darslik va qo'llanmalarda refleksiv topshiriqlarning yetarli emasligi kabi holatlar metakognitiv yondashuvni to'laqonli joriy qilishga to'sqinlik qilmoqda. Yakuniy xulosa shuki, metakognitiv yondashuv boshlang'ich ta'limda, xususan, ingliz tili fanini o'qitishda yuqori samara beradigan, o'quvchini markazga qo'ygan, zamonaviy pedagogik paradigmalariga mos keladigan samarali metodik yondashuv hisoblanadi.

Takliflar:

1. O'qituvchilar uchun metakognitiv treninglar o'tkazish;
2. Boshlang'ich sinf darsliklariga refleksiv yondashuv asosida topshiriqlar qo'shish;
3. Interaktiv texnologiyalar (Padlet, Kahoot, Jamboard) orqali o'z-o'zini baholash muhitini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вуд, Д. Развитие метакогнитивных навыков у учащихся / Д. Вуд, Дж. Браун. – Москва: Просвещение, 2020. – 256 с.
2. Flavell, J.H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry // American Psychologist. – 1979. – Vol. 34(10). – P. 906–911.
3. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. – New York: Longman, 2001. – 312 p.
4. Pressley, M., & Harris, K.R. Cognitive strategies instruction: From basic research to classroom instruction // Learning and Individual Differences. – 2006. – Vol. 16(2). – P. 1–22.
5. Yusuf, Q., & Widyaningrum, L. Metacognitive Strategies in English Language Learning: A Study on Indonesian Students // Advances in Social Science, Education and Humanities Research. – 2018. – Vol. 353. – P. 110–116.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–2909-son qarori. – Toshkent, 2017 yil, 20-aprel.
7. Салимова, Д. Р. Развитие метапредметных умений у младших школьников // Начальная школа. – 2019. – №12. – С. 23–28.
8. Livingston, J. Metacognition: An Overview // Educational Resources Information Center (ERIC). – 2003. – <https://eric.ed.gov/?id=ED474273>
9. Mahkamova, M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik asoslari // Current Research Journal of Pedagogics. – 2023. – №1(5). – B. 45–52.
10. Oxford, R. L. Language learning strategies: What every teacher should know. – Boston: Heinle & Heinle, 1990. – 289 p.